

**“ISYON VA ITOAT” ROMANIDA INSON RUHIYATI VA FALSAFIYQARASHLAR****Latifova Nargiza Fazliddin qizi**Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti  
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich.<https://doi.org/10.5281/zenodo.20126905>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, unda inson ruhiyatining murakkab jihatlari, uning ichki ziddiyatlari va ma'naviy izlanishlari tahlil qilinadi. Bugungi yosh avlod uchun bu masalalar juda muhim bo'lib, ular hayotda to'g'ri yo'l tanlash, o'zligini anglash, mustaqil fikrlash kabi fazilatlarni shakillantirishda katta ahamiyatga ega. Maqolaning maqsadi-Isyon va itoat romanida aks ettirilgan isyon va itoat tushunchalarining badiiy-falsafiy talqinini ochib berish va asardagi qahramonlarning ruhiy olamine tahlil qilish, muallifning asosiy g'oyasini aniqlashdan iborat. „Isyon va itoat“ asaridagi qahramonlarning turli holatdagi turlicha dunyoqarashlarini badiiy va falsafiy tahlili haqida fikr yuritimiz.

**Kalit so'zlar:** Akbar, Larisa xola, Tursunboy, Diana, inson psixologiyasi, Rus mafiyasi, isyon, itoat, N.Vladimirova, Marat.

**Abstract.** The relevance of this article is that it analyzes the complex aspects of the human psyche, its internal conflicts and spiritual quests. These issues are especially important for today's young generation, as they are of great importance in the formation of such qualities as choosing the right path in life, self-awareness, and independent thinking. The purpose of the article is to reveal the artistic and philosophical interpretation of the concepts of rebellion and obedience, reflected in the novel *Isyon va itoat*, to analyze the spiritual world of the characters in the work, and to identify the author's main idea. We will consider the artistic and philosophical analysis of the different worldviews of the characters in the work „*Isyon va itoat*“ in different situations.

**Keywords:** Akbar, Aunt Larisa, Tursunboy, Diana, Human psychology, Russian mafia, rebellion, obedience, N.Vladimirova, Marat.

**KIRISH.** O'zbek adabiyoti rivojlanishida inson ruhiyati, uning ichki kechinmalari hamda uning ma'naviy olamini tasvirlash masalalari har doim muhim o'rin egallab kelgan. Ayniqsa shuni aytishimiz joizki, mustaqillik davri adabiyotida inson shaxsiga, uning ichki olamiga, ruhiy iztiroblari va hayotiy izlanishlariga bo'lgan e'tibor yanada ortdi. Bu davr adabiyotida yozuvchilar tashqi voqealar tasviridan ko'ra inson qalbiga chuqur kirib borishga, va uning o'z-o'zi bilan kurashini badiiy talqin etdilar.

Ana shunday asarlarimizdan biri bu „Isyon va itoat“ romani alohida ahamiyatlidir. Ushbu asar nafaqat syujet jihatdan, balki falsafiy mazuni, ruhiy tahlilning chuqurligi bilan ham ajralib turadi desak xatò bo'lmaydi. Roman insonning o'z “men”ini anglash, hayot mazmunini topish, e'tiqod va Shubha o'rtasida kechadigan murakkab jarayonlarni yoritadi.

Hozirgi globallashuv davrida insoniyat turli ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy muammolar bilan yuzma yuz kelmoqda. Bunday murakkab sharoitda shaxsning ichki barqarorligini saqlab qolishi, o'z yo'lini topishi, hayot mazmunini anglashga intilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tomondan olib qaraydigan bo'lsak, mazkur roman bugungi kitobxon uchun ham dolzarb hisoblanadi. Negaki unda ko'tarilgan masalalar-isyon, e'tiqod, itoat, shaxs erkinligi, ruhiy izlanish kabi tushunchalar har qanday davr va jamiyat uchun muhimdir.

Asar markazida inson qalbidagi ikki qarama -qarshi kuch isyon va itoat tushunchalari turadi.

Bu tushunchalar oddiy qarama-qarshilik emas, balki inson tabiatining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Isyon – bu insonning haqiqatni izlashga, erkinlikka intilishi, mavjud tartiblarga Shubha bilan qarashi bo'lsa, itoat esa – sabr, qabul qilish, ichki muvozanatni saqlash, taqdirga tan berish kabi jihatlarni ko'rishimiz mumkin.

Muallif ushbu ikki holatda qarama – qarshilik emas, balki ularning o'zaro uyg'unligi orqali ham inson kamolotini ko'rsatishga harakat qiladi. Mening fikrimcha, Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan qaraganimizda, Isyon va itoat romanida psixologizm yetakchi o'rin egallaydi.

Asarda voqealar rivojidan ko'ra qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, tafakkur jarayoni muhimroq ahamiyat kasb etadi. Bu esa asarni falsafiy-psixologik roman sifatida baholashga imkon beradi. "Inson qalbi – bu kurash maydoni: unda isyon ham, itoat ham yashaydi."

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mustaqillik davridan keyin o'zbek adabiyotida yuzaga kelgan yangilanish jarayoni badiiy tafakkurda ham chuqur o'zgarishlarni olib keldi va inson shaxsiyatiga, uning ichki kechinmalariga, ruhiy olamiga e'tibor kuchaydi. Shu nuqtai nazardan qarasak, Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romani zamonaviy o'zbek adabiyotining eng muhim falsafiy-psixologik asarlaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Asar mustaqillik davrida yaratilgan bo'lib, unda jamiyatimizdagi ma'naviy o'zgarishlar, inson tafakkuridagi yangi g'oyalar aks etadi.

Muallif asar orqali bizga nima demoqchi ya'ni bunda, insonning ichki dunyosini ochishga harakat qiladi. Asar yaratilgan davrda o'zbek adabiyotida falsafiy yo'nalish kuchaygan bo'lib, yozuvchilar inson ruhiyatiga chuqur kirib borishga intiladilar. Bu esa mazkur asarning yaratilishiga zamin yaratadi. Asar g'oyalarga to'htaladigan bo'lsak unda quyidagi g'oyalarni ilgari surishimiz mumkin:

Inson erkinligi va mas'uliyati;

E'tiqod tushunchasi bilan bir qatorda Shubha gumon muammosi;

Isyon va itoat o'rtasidagi ziddiyatlar;

Hayotdan ma'no qidirish;

Asarda yana shularni ko'rishimiz mumkinki, qahramonlar psixologik obrazlar sifatida tasvirlangan, va har bir obraz orqali muallif inson ruhiyatini turli holatlarda turlicha ochib beradi.

Aytishadiki, Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov shunday keltiradilar: „Badiiy asarda insonning ichki dunyosi ochilishi uning eng muhim estetik qiymatini belgilaydi.” [2;140b]

Tadqiqotchilar bu asarni falsafiy asar sifatida baholashgan. Unda insonning mavjudligi, erkinligi, hayot mazmuni kabi muammolar ko'tariladi. Romanda ekzistensializm g'oyalari seziladi. Negagi, asarda insonning yolg'izligi, tanlov oldidagi ikkilanishi va javobgarligi kabi holatlarni ko'rishimiz mumkin. Falsafiy tomondan tahlil qiladigan bo'lsak, Falsafa fanlari doktori M. Sharipovning falsafiy qarashlarini keltirishimiz mumkin: „Inson erkinligi doimo tanlov va mas'uliyat bilan chambarchas bog'liqdir.” [3;105b] Asar tahlilida yana shularni ko'rishimiz mumkin, asarda ichki manologlar, ong oqimi, ruhiy iztiroblar va asar qahramonlarining ichki kechinmalarini, ruhiy holatlarini Psixologik tahlil orqali ko'rishimiz mumkin. G'aniev. I aytadilarki: „Ruhiy kechinmalar inson xatti-harakatining asosiy ichki omilidir.” [4;60b] Badiiy asarda psixologizm bu asardagi har bir qahramonning ichki manologlaridan kelib chiqib biz asarni tahlil qilamiz. Ibrohimov S aytadilarki: „Psixologizm-bu qahramonning ichki olamini badiiy vositalar orqali ochishdir.” [5;25b] Asarda diniy-axloqiy masalalar ham muhim o'rin tutadi. Insonning yaratganga bo'lgan munosabati, itoat va isyon tushunchalari diniy nuqtai nazardan yoritiladi. Asarda 1-qismida keltirilishicha diniy parchalar olam zulmatga to'la edi.

Na qittay yorug'lik bore di na jinday harakat. Ehtimol bordir, biroq barchasi zulmat bilan uyg'unlashib ketgan. Faqat tangritaolo bor edi. Vaqti kelib u bilinmoqni istadi niyat qildi. „Va yorug'lik bo'lsin“! dedi. Shunda zulmatning bag'ri chok-chok so'kilib ichidan nur oqib chiqdi.

Dunyoda zulmat va nur, tun va kun paydo bo'ldi. Bu yaratilishning birinchi kuni edi. 7-qismida:

Yaratilishning ikkinchi kunida xudoyim osmonni yerdan ayirdi va unda o'simliklar, daraxtlarni dunyoga keltirdi, ko'kni va yerni to'ldirib, uchdigan yuradigan qushlar, to'da-to'da hayvonlarni yaratdi. Yer va osmon o'rtasida kun va tun almashinib turishi uchun oy quyosh va yulduzlarni yaratdi. Hamma narsa nihoyyo bo'ldi, suv yer hayvonlar faqat ularning ustidan hokimlik qiladigan, anglab biladigan zot hali yaratilmagandi. Shunda olloh taolo o'zining shoh asari odamni o'z suratida, ilohiy shamoyilda tuproqdan yasadida unga jon ato etdi. Odam hech narsadan kam yashamasligi uchun bog' barpo etdiva odamni u yerga qo'yib sen hamma daraxt mevasini yeyaver faqat yaxshi va yomonni bilish daraxtidan yema. Chunki undan yegan kuning o'lasan deya buyurdi. Faqat odam yolg'iz edi. Xudo esa uning ham parranda-darandalr kabi juft bo'lishini istadi. Shu niyatda odamni qattiq uxlatdi va uning qovurg'asidan odamning juftini yaratdi. Odamni uyg'otdi. Shunda odam xudoning istagiga ko'ra „Mana, endi bu suyak mening suyaklarimdir, bu et mening etimdir“. U „xotin kishi“ deb aytiladi, zeroki er kishidan olingandir dedi. Shuning uchun ham keyinchalik dunyoga kelgan o'g'il-qizlar ulg'ayib voyaga yetishgach, ota-onalarini qoldirib, er xotini bilan, xotin esa eri bilan bir tanu bir jon bo'lib ketishar ekan.

Odamni yaratib bo'lgandan so'ng olloh taolo farishtalarga qarab „unga sajda qiling“ deya buyurdi. Ular sajda qildilar. Faqat shaytongina bo'ysunmadi. Nega mening amringa bo'ysunmading ? deya so'radi. Xudoyim chunki odamni loydan yaratganing holda olov jinsidan bunyod bo'lgan men netib unga sajda qilay, axir u mendan pastku deya e'tiroz bildirdi shayton.

Olloh taolo darg'azab bo'ldi vz shaytonni o'z dargohidan quvib yubordi. O'sha -o'sha shayton odamni yomon ko'rib qoldi. Adan o'lkasidagi bog'da xotini bilan bahuzur Yashar hech qanday dardlari yo'q, jismi va joni xohlagan narsaga muyassar edilar. Faqat bog' o'rtasidagi ikkita daraxtga yaqinlashmasligi, ular mevasini yemasligi kerak edi. Ammo shunda daraxtning orqasidan shayton chiqib keldi va shayton bu mevadan yesangiz mangu yashaysizlar deya aldaydi. Xotin yeydi va so'ng odam keladi sen ham yeb ko'r deydi ammo xudo bu daraxt mevasidan yeyishni man qilganlarku deydi, mana men yedimku o'lmadimku deya odamga ham yediradi va xudo yetib keladi va juda darg'azab bo'ladi. Odam va uning xotinini jannatdan quvib yubordi. Xudo quvib yetdi, odamga tazim qil deganimizda bo'yin tovlab ketgan shaytonning so'ziga kirib bizni unutding. Chunki rohat-farog'at Ichida eding va uni ko'tara olmading. Endi jannatdan tushda yerni o'zingga makon ayla, to biz ko'rsatgan yo'lga qaytib kelmaguningcha zahmat chek. Zahmat chek, zero gunohingni yuvishning ham, bizni xotirlashning ham yagona chorasi shu.

Badiy asar tahlili jarayonida asarning mazmuni va shaklini birgalikda o'rganishni talab etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, shayton olloh taologa isyon qiladi bo'ysunmaydi va odam ham shaytonning gapiga kirib aldanib qoladi. Itoat-bu qo'rquv emas, aslida anlangan haqiqatga bo'ysunish desak mubolag'a bo'lmaydi.

Asarda Akbar obraziga tarif bersak, u hayotning qiyinchiliklariga narozli bo'ladi va o'z taqdiridan noliydi. Syujetga qisqacha to'htalsak, Akbar o'qituvchi bo'ladi, bir o'quvchisini darsga kirmay tennisi o'ynayotganini ko'rib, undan darsga kirishini talab qiladi ammo o'quvchi Akbarni turtib yuboradi va qamaladi.

U bir yarim yildan keyin qamoqdan chiqadi va chetelda mafiyalarga duch keladi u yerdan ham qutilib chiqadi keyin ham oilasi bag'rida emas shaharda yashaydi. Bunga uni nima majbur qildi. Birinchidan u o'z hayotini tubdan isloh qilmadi, anglamadi. U o'ziga berilgan taqdirga isyon qildi, u hech narsani chuqur o'ylamadi va baxtli yashamadi. U oxirida taqdiriga rozi bo'ldi va itoat qildi, o'z halovatini topdi. Buni shu so'zlaridan anglashimiz mumkin : Axir mening umrim qurbon bo'lib ketmadimi shu yo'llarda, na oila qoldi menda na uning qayg'usi na odamlarga o'xshab hayotdan lazzat olish istagiyu na buning armoni. Aslida hamma balo o'sha gulxanda- Isyon gulxanida. Men, nihoyat, isyon azobidan forig' bo'lib, ozodlikka chiqqandim. Ozodlikning ismi esa -Itoat edi. Va men o'zimni u yon bu yonga urishni bas qilib, yo'q- yo'q, bunday emas, qirq-ellik yil davomida meni chirpirak qilib o'chirib yurgan kuch sekin-asta orqaga chekindida, men o'zimga o'zim tegishli bo'lib qoldim.[1;98 b] Yodingda bo'lsinkim, ko'nglingdagi ishtibohdan, tomiringda qonga qo'shilib oqayotgan isyondan tamomila xalos bo'lib, yana huzurimizga tavba qilib qaytib kelmagunigcha chinnakam saodat nima ekanligini bilmagaysan.[1;102b] Xa, mangu isyon bu-yoshlik, isyon bu-go'zallik, isyon bu -go'zal yoshlikning davom etishini istashlik yoki mangu davom etmasligiga qarshi narozilik.[1;132,133b]

#### MUHOKAMA

Isyon va itoat romani zamonaviy o'zbek adabiyotida inson ruhiyatini ochib berishning yangi bosqichini ifodalaydi. Asardagi asosiy konflikt tashqi voqealar tizimidan ko'ra ko'proq ichki psixologik kurashga asoslangan bo'lib, bu esa asarni an'anaviy realizmdan farqlaydi.

Asarda Tursunboy obrazi uni jontalash deyishadi. Negaki, unga jontalash laqabi nima uchun berilgan, u daladan beri kelmasdi, abetni ham traktorda qilardi, ertalabdan traktorga chiqib kechqurun tushardi, hattoki ish deb bitta-yu -bitta akasini ham to'yiga bormadi. Shundan so'ng u yotib qoladi kundan kunga mazasi qochib tuzalmadi. Tabib keldi tekshirdi, u qizilo'ngach rakiga chalingan ekan. Tursunboy tuzalib ketasz hali deb uni ovitardi lekin tuzalmadi. U faqat akasini kutar edi, bir kuni yurolmasa ham meni turg'izinglar akamni ko'rib kelaman dedi, bolalari turg'izib akasini yoniga olib borishadi lekin akasini ko'rolmaydi. Bu kunasiga akasi yoniga keladi, mana uka men shu yerdaman deydi. Ukasi Tursunboy vafot etadi. Larisa xola obrazi, rus ayoli turmush o'rtog'idan ayrilgan uni bir uch xonali uyi bor hech kimi yo'q, qo'shnisi Mahkam onda-sonda kelib qarab turadi. Larisa xola uyini Mahkamning nomiga o'tkazib berish niyati bo'ladi. Larisa hola vafotigacha mahkam o'tib ketadi, Larisa hola Mahkamning bolalariga uyni vasiyat qilib ketadi. U o'zini to'rtinchi etajdan tashlab yuboradi va vafot etadi. Tabib obrazi institutda o'qib yurgan paytlari u ko'p tajriba o'tkazadi. Ammo o'sha davrlarda ruxsatsiz tajriba o'tkazish mumkin bolmagan, Tabibni tajriba o'tkazganligi uchun qamaladi. Qamoqdan chiqqandan so'ng u qishloqqa qaytadi. Uyg'a kelganda xotinini ushlab oladi va ajrashadi, shundan beri u yolg'iz.

#### NATIJA

Ulug'bek Hamdam asarda muayyan bir g'oyaviy-ma'naviy masalalar va ularning yechimiga e'tibor qaratadi. Ma'naviy jaholat, uyushgan zo'ravonlik(mafiya), mustabid tizim g'oyasi, tibbiyot sohasidagi turg'unlik (professor e'tiqodi), kabi bir qancha dolzarb ijtimoiy nosoz illatlar borki, ularga nisbatan nafaqat yozuvchi, balki jamiyatning a'zolari barcha kitobxonlar ham isyon ko'tarishi, itoatga kela olmasligi aniq. Asarda ilgari surilgan falsafiy, diniy va axloqiy g'oyalar insonning o'zligini anglash, e'tiqod va erkinlik muammolarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berildi. Isyon va itoat romani ko'p qatlamli semantic tuzilishga ega bo'lib, uni turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish zarur.

Aasar o'zbek adabiyotida falsafiy-psixologik roman janrining rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan muhim badiiy asar sifatida baholanadi.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Isyon va itoat romani zamonaviy o'zbek nasrida falsafiy-psixologik yo'nalishning yetuk namunalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Asarda inson shaxsining ichki ziddiyatlari, erkinlik va zarurat o'rtasidagi munosabatlar mohiyati chuqur badiiy talqin etilgan. Izlanishlar davomida shuni ko'rishimiz mumkinki, asarda ilgari surilgan g'oyalar nafaqat badiiy-estetik, balki falsafiy mazmunga ega bo'lib, insonning o'z „men“ini anglash orqali murakkab ichki konfliktlar orqaliochib berilgan. Shuningdek Ulug'bek Hamdam tomonidan yaratilgan obrazlar tizimi psixologik jihatdan asoslangan bo'lib, unda qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va qaror qabul qilish individual badiiy tafakkur mahsuli sifatida aks ettirilgan. Bu holat asrning psixologik realism an'analari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Umuman olganda „Isyon va itoat“ romani inson ruhiyati, e'tiqodi va erkinlik muammolarini badiiy-falsafiy asosda yoritib beruvchi yirik asar sifatida o'zbek adabiyotida alohida o'rin egallaydi. Romanni chuqur o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki falsafa va psixologiya fanlari kesishgan nuqtada yangi ilmiy xulosalar ciqarishga imkon yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hamdam, U. Isyon va itoat-Toshkent: Sharq,2012 PDF: Ziyonet kutubxonasi[15-120-betlar
2. Quronov, D. Adabiyotshunoslikka kirish-Toshkent,2007 PDF: Ziyonet[140 b]
3. Sharipov, M.Falsafa asoslari-Toshkent,2005PDF: Ziyonet[105b]
4. G'aniev, I. Psixologiya-Toshkent, 2014. PDF: Ziyonet [60]
5. Ibrohimov, S.Badiiy asrda psixologizm-Toshkent,2015.PDF:ilmiy maqola(Google Scholar)[25b]